



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqa boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2026-yil 12-mart, № 48 (9219)

Payshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



KIMYO SANOATINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Tanqidiy ruhda o'tgan tadbirida tarmoqni "maqsad – harakat – natija" tamoyiliga asoslangan yangi strategik rejalashtirish va rivojlantirish tizimi asosida isloh qilish zarurligi ta'kidlandi. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlarni belgilash topshirildi.

Jumladan, joriy yilda tarmoq mahsulotlari eksportini 720 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yilgan. Qishloq xo'jaligida rejalashtirilgan hosil hajmlarini ta'minlash uchun azotli o'g'itlar ishlab chiqarishni 1 million 120 ming tonnaga, fosforli o'g'itlarni 135 ming tonnaga, kaliyli o'g'itlarni esa 222 ming tonnaga yetkazish zarurligi ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, tarmoq va hududlar tomonidan joriy yilda 9,5 milliard dollarlik 133 ta loyihani amalga oshirish doirasida 2,5 milliard dollar investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan. Jumladan, kimyo sanoati korxonalarida va hududlarda 24 ta strategik loyiha doirasida 1,3 milliard dollar investitsiyalarni o'zlashtirib, 7 ta yangi ishlab chiqarish quvvatini ishga tushirish vazifasi belgilangan.

Shu bilan birga, Qo'ng'iro't soda zavodida ishlab chiqarishni kengaytirish, "Samarqandkimyo" korxonasida mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, Dehqonobod kaliy zavodi quvvatlarini oshirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish

jarayoni tanqidiy ko'rib chiqildi. Muddatlarning asossiz cho'zilayotgani qayd etildi. Mutasaddilarga investorlar bilan birgalikda mazkur loyihalarni jadallashtirib, qisqa muddatlarda yakunlashni ta'minlash topshirildi.

"Ammofos-Maksam" korxonasi faoliyati davomida to'plangan fosfogips sanoat chiqindilarini qayta ishlash masalasiga ham e'tibor qaratildi. Ushbu chiqindidan qo'shimcha mahsulotlar, jumladan, sulfat kislotasi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, kimyo sanoatini strategik rivojlantirish uchun zamonaviy ilmiy va texnologik infratuzilmani shakllantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Xususan, Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda kimyo-texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish rejalashtirilgani ma'lum qilindi. Mazkur markaz gaz va ko'mir kimyosi, chuqur kimyoviy tahlil, sorbentlar, katalizatorlar, nano va kompozit materiallar kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishga ixtisoslashtiriladi va bu borada Markaziy Osiyodagi yagona ilmiy-tadqiqot instituti bo'ladi.

Taqdimotda erituvchi moddalar, quruq sian tuzlari, kaustik soda, silikon, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni tashkil etish, "Farg'onaazot" da ammiak, karbamid va ammiakli selitra quvvatlarini modernizatsiya qilish, "Navoiyazot" da g'ovaksimon selitra, Toshkent viloyatida

maishiy kimyo vositalari, Birinchi rezinotexnika zavodida yangi turdagi shinalar ishlab chiqarish loyihalarining borishi haqida ham ma'lumot berildi.

Shu bilan birga, "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida loyihalarning boshqarish samaradorligini oshirish rejalari ko'rib chiqildi.

Jumladan, jamiyat va uning tizimidagi korxonalarda "ERP" tizimi joriy qilinib, 21 ta vazirlik va idora hamda xarid operatorlari bilan integratsiya qilindi, 16 ta axborot tizimi yagona raqamli platformaga birlashtirildi. Moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, mineral o'g'itga ehtiyojni bashorat qilish jarayonlariga bosqichma-bosqich sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, mineral o'g'itlarning korxonadan fermegacha harakatidagi barcha jarayonlarni raqamli nazorat bilan qamrab olish ko'zda tutilgan.

Hisob palatasi bilan birgalikda energiya resurslarini tejash, xomashyo xarajatlarini qisqartirish va raqamlashtirish chora-tadbirlari orqali kimyo sanoatida mahsulot tannaxrini 10 – 15 foizgacha pasaytirish vazifasi qo'yildi.

Yakunda davlatimiz rahbari kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish, muammoli masalalarni tekzor hal qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini belgilangan muddatlarda ishga tushirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

LOYIHALARNI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev loyihalarni ekspertizadan o'tkazish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Joriy yilda mamlakatimiz hududlari va iqtisodiyot tarmoqlariga 50 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilish, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari qurilishiga 24 trillion so'm byudjet mablag'larini yo'naltirish, shuningdek, davlat xaridlari doirasida 300 trillion so'mdan ziyod tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish rejalashtirilgan. Bunday katta hajmdagi loyihalarni amalga oshirishda ularni ekspertizadan o'tkazish tizimining tekzor va sifatli ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, amaldagi tartib mazkur talablarga to'liq javob bermayotgani, tadbirkor va investorlarning jiddiy e'tirozlariga sabab bo'layotgani qayd etildi. Jumladan, o'tgan yili ekspertizaga kelib tushgan 7 ming 750 ta hujjatning bir qismi uzoq muddatlarda ko'rib chiqilgan. Ayrim hollarda loyihalar ahamiyati katta bo'lmagan kamchiliklar sabab bir necha marta qayta ishlashga yuborilgan.

Shu bois Prezident farmoni bilan Loyihalar va import shartnomalarini kompleks ekspertiza qilish markazi yangi tuzilgan Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligiga o'tkazildi va uning faoliyatini transformatsiya qilish vazifalari belgilab berildi.

Taqdimotda sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Markaz faoliyati raqamlashmagani va xavf-tahlil yondashuvining yo'qligi uchun bitta xodimga to'g'ri keladigan

operatsion yuklama ortib ketgani qayd etildi. Markazda 130 nafar xodim ishlashda, xavfi past va strategik ahamiyatli loyihalar bir-biridan ajratilmagani uchun har bir xodimga ikki kunda o'rtacha bitta loyiha to'g'ri kelmoqda.

Ekspertizaga kelib tushayotgan hujjatlarning katta qismi qiymati nisbatan kichik bo'lgan loyihalardan iborat. Shuningdek, ko'plab hujjatlar avval ko'rilgan loyihalarga o'xshash bo'lsa ham, ular qaytadan to'liq tartibda ko'rib chiqilmoqda. Bu esa ortiqcha vaqt va resurs sarfiga sabab bo'layotgani qayd etildi.

Taqdimotda markaz faoliyatiga ilg'or tajriba va amaliyotlarni joriy qilish taklif qilindi.

Xususan, loyihalarni ko'rib chiqishda xavf darajasi va qiymatiga qarab, tabaqalashtirilgan tartibni joriy etish taklifi bildirildi. Unga ko'ra, loyihaoldi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishda texnik topshiriqlar ko'rib chiqilmaydi, faqat 15 million dollardan yuqori qiymatdagi korporativ va byudjet loyihalari ko'rib chiqiladi.

Yirik va megaloyihalarni parallel ekspertizadan o'tkazish, avvalgilarga o'xshash loyiha kelib tushganda, tezlashtirilgan tartibda ko'rib chiqish, jismonan va ma'nan eskirgan uskunalarini soddalashtirilgan tartibda ekspertizadan o'tkazish, benchmarking usulini qo'llash tashabbuslari ilgari surildi. Bu ekspertiza jarayonini maqbullashtirib, markazning asosiy e'tiborini strategik ahamiyatga

ega yirik investitsiya loyihalariga qaratish imkonini beradi.

Taqdimotda ekspertiza jarayoni ishtirokchilari uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Jumladan, loyihalar bo'yicha birinchi bosqichdayoq ijobiy xulosa olinsa yoki loyiha bo'yicha bildirilgan e'tirozlar muddatidan oldin bartaraf etilsa, buyurtmachilarni rag'batlantirish, ekspertiza jarayonlarini tezlashtirish va chegirmalar berish kabi choralar taklif qilindi.

Markaz faoliyatini raqamlashtirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun soliq va bojxona organlari, milliy statistika tizimi, ekologiya va iqlimga oid ma'lumotlar bazalari, shuningdek, qurilish resurslari milliy klassifikatori hamda davlat xaridlari elektron tizimlari bilan integratsiya qilingan yagona axborot platformasi yaratiladi. Ushbu platforma orqali loyihalarga oid hujjatlar onlayn shakllantirishi, tovar va xizmatlarning narxlarini hamda texnik ko'rsatkichlarni sun'iy intellekt yordamida tahlil qilinishi belgilanmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihalar ekspertizasi investitsiya muhitining muhim bo'g'ini ekanini ta'kidlab, mazkur sohada ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish, jarayonlarni raqamlashtirish, sifat va tekzorklikni oshirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

Hisobot

KRIMINOGEN VAZIYAT TAHLILI



Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisida Ichki ishlar vazirligining 2025-yilda mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirgan ishlar yuzasidan axboroti eshitildi.

Qayd etilganidek, hisobot davrida respublikamizda oldi olinishi mumkin bo'lgan, lekin sodir qilingan jinoyatlarning 89,3 foizi (36 421 tasi) fosh etilgan.

Tezkor-qidiruv va tergov harakatlari davomida 9 921 nafar qidiruvdagi shaxs ushlab, 600 nafar bedarak yo'qolgan fuqaro topilgan. Bevosita mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 9 008 ta mahallaning 4 034 tasida (44,8 foiz) jinoyat umuman sodir etilmagan.

Kriminogen vaziyat tahliliga ko'ra, mahallalarning 44,8 foizi "yashil", 47,9 foizi "sariq" va 7,4 foizi "qizil" toifaga kiritilgan.

Profilaktik choralar natijasida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 4,6 foiz, yoshlar o'rtasidagi jinoyatlar 15,1 foiz, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 14,2 foiz, guruh bo'lib qo'l urilgan jinoyatlar 13,1 foiz, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilik 11 foiz va mast holatda sodir qilingan jinoyatlar 5,6 foiz kamaygan.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

YURT RAVNAQI, AHOLI FAROVONLIGINING MUSTAHKAM KAFOLATI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda

Arxiv ishi: huquqiy asos takomillashtiriladi

Majlisda dastlab davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.



mamlakatimiz hayotidagi muhim voqeiklarga to'xtalib o'tildi. Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, xalq deputatlari Kengashlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qator qonun loyihalari atroficha ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasini birinchi o'qishda muhokama qilish davomida deputatlar tomonidan qator takliflar berilgan edi. Uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida barcha takliflar chuqur tahlil qilinib, ular asosida hujjat matni maromiga yetkazildi.

INVESTITSİYALAR — TARAQQIYOT OMILI

Global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdidlar tobora kuchayayotgan, geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o'zgarayotgan bir davrda moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsuloti o'sish sur'atlarining ketma-ket uchinchi yil davomida pasayishi kuzatilmoqda.

Mulohaza

Albatta, bunday iqtisodiy buhron mintaqamizga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunday sharoitda O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan investitsiya siyosati bilan muhim rol o'ynaydi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay muhit barpo etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarini qurish, pirovardida aholi bandligini ta'minlash va uning daromadlari oshirilishi kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini beradi.

Prezidentimizning tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar natijasida keyingi sakkiz yil davomida yalpi ichki mahsulot 2 barobar ko'payib, 145 milliard dollardan oshdi.



«AQLLI» TEXNOLOGIYALAR

dehqonchilikda obihayotni o'n karra tejash imkonini beradi



Bugun yurtimizda suv tejavchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 2,6 mln. gektarga yoki sug'oriladigan yer maydonlarining 60 foiziga yetdi. Xolbuki, 2017-yilgacha bunday texnologiyalar atigi 19 ming gektarni tashkil etardi. Mazkur o'zgarishlar natijasida har yili 2,5 mlrd. kub metr suv tejashga erishilmoqda.

Bu haqda 3-fevral kuni Prezidentimiz rahbarligida suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda so'z yuritildi.

Davlatimiz rahbari taqdimotda bu boradagi ishlar qamrovini yanada kengaytirish bo'yicha navbatdagi vazifalarni belgilab berdi. Unga ko'ra, 2028-yilga qadar suv tejavchi texnologiyalar 930 ming gektar yerda o'rnatilib, bunday maydonlar 3,5 mln. gektarga yoki jami sug'oriladigan yerlarning 80 foiziga yetkaziladi. Marraning bunday baland qo'yilayotganining sababi bor, albatta. Chunki suvning har qatrasidan unumli foydalanish hayotiy zaruratga aylangan. Endi obihayotni shunchaki ekinzorga oqizib qo'yib emas, har tomchisini hisoblab, pulini to'lab ishlatishga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda zamonaviy suv tejavchi texnologiyalar o'rnatgan dehqon ham resursni, ham mablag'ni tejaydi. Eng asosiysi, ekinni chanqatib qo'ymasdan, mo'l va barakali hosil yaratadi.



Qishloq xo'jaligi

Xarajat tez qoplanadi, xizmatlar kafolatli bo'ladi

– 54 gektarlik dalamizning uchdan birida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etib, suv bilan bog'liq muammoni kamaytiridik, – deydi Kegeyli tumanidagi "Davlatnazar makon" fermer xo'jaligi rahbari Muxamedali Davlatnazarov. – Natija zo'r, hosildorlik ham 30 foizga oshdi. Nasib etsa, tomchilatib sug'orish tizimiga to'liq o'tmoqchimiz. Xarajati katta, ammo sarflangan pul asosiy va takroriy ekinlar hisobidan bir yildayoq qoplanadi. Buni xo'jaligimiz misolida o'zim xomcho't qildim. Qolaversa, taqdimotda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari qo'llanilishi aytiladi. Bundan xursandmiz.



Munosabat

MILLIY QADRIYATLARIMIZNING YORQIN IFODASI

Bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida Navro'zning ma'no-mazmuni yanada chuqurlasib, inson qadrini ulug'lash, jamiyatda o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini mustahkamlash kabi yuksak g'oyalar bilan uyg'unlashib bormoqda.

Prezidentimizning shu yil 6-martdagi "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu qadriyatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbus sifatida alohida ahamiyatga ega.

Navro'z ming yillik an'analarini o'zida mujassam etgan, tabiatning yangilanishi

bilan inson qalbidagi ezgu niyatlar, saxovat va bag'rikenglik tuyg'ularini uyg'otadigan muqaddas ayyomdir. Shu jihatdan qaraganda, bugungi kunda Navro'z nafaqat milliy qadriyatlarimizning yorqin ifodasi, balki jamiyatimizda birlik va hamjihatlikni mustahkamlaydigan, inson qadrini ulug'laydigan yuksak ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.



KRIMINOGEN VAZIYAT TAHLILI



"102" xizmati orqali kelib tushgan 2,5 millondan ortiq murojaatlar ko'rib chiqilib, qariyb 1,4 millionta huquqbuzarlikning oldi olingan.

Narkojinoyatlar yo'nalishida 15

412 ta jinoyat qayd etilib, 3 tonna 775 kg. giyohvandlik vositalari musodara qilingan. 15 ta narkolaboratoriya aniqlangan.

Shu bilan birga, sohada ayrim muammolar saqlanib qolayotgani

ta'kidlandi. Xususan, 2025-yilda respublika bo'yicha 155 002 ta jinoyat ro'yxatiga olingan bo'lib, bu har 100 ming aholiga nisbatan 412,9 tani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich Toshkent shahrida – 942,6, Toshkent viloyatida – 544, Sirdaryo viloyatida – 440,3 va Navoiy viloyatida 449,6 taga to'g'ri kelgan.

Tahlilarga ko'ra, jinoyatlarning 49,6 foizi axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan. Raqamli iqtisodiyotda nazorat mexanizmlari yetarli emasligi sababli 53 ta noqonuniy mayning ferma tomonidan davlatga 20,6 milliard so'm zarar yetkazilgan.

2025-yilda yoshlar tomonidan 13 639

ta jinoyat sodir etilganini inobatga olib, qo'mita majlisida yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Qo'mita a'zolari tomonidan sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish, profilaktika ishlarini kuchaytirish, axborot texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish hamda mahallalarda manzilli ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar aks etgan qaror qabul qilindi.

Majlisda, bundan tashqari, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning hisoboti ham eshitildi.

Muhokama yakunlari bo'yicha qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

INVESTITSİYALAR —
TARAQQIYOT OMILI

2025-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimida ham oldingi yillar kabi qisqarish qayd etildi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan izchil islohotlar, biznes yuritish uchun yaratilgan qulay sharoitlar, jumladan, oxirgi to'rt yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'lmoqda. Mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar, investorlar huquqlarining kafolatlangani ularning qiziqishini tobora oshirmoqda.

O'tgan yil investitsiya hajmi 35 mlrd. dollarga, jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning hajmi esa 43,1 mlrd. dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etdi. Yil davomida xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,2 foizi ishlab chiqarish sanoatiga, 29,0 foizi tog'-kon sanoati va elektr, gaz bilan ta'minlash sohasiga, 9,2 foizi qishloq xo'jaligi hamda 6,1 foizi qurilish tarmog'iga to'g'ri keladi. Hududlar kesimida Toshkent shahri, Namangan va Sirdaryo viloyatlari boshqa hududlarga qaraganda ko'proq xorijiy investitsiya va kreditlar jalb qilinishiga erishgan.

Bular, eng avvalo, ilg'or texnologiyalar va ularning transferi, tashqi bozori aniq, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirishga, mahalliy ishchilarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'qitish va mehnat unumdorligini ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari o'tgan yilning yakunida Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazishni asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab, kelgusi besh yilda 180 mlrd. dollarlik, jumladan, 2026-yilda 50 mlrd. dollar xorijiy investitsiya



kiritish maqsad qilinganligi ta'kidlangan edi.

Shuningdek, kelgusida yuqori texnologiya va yangi kompetensiyalar olib kirgan hamda ishlab chiqaradigan mahsulotni eksportga yo'naltiradigan investorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida loyiha uchun yerlar bozor qiymatida to'g'ridan-to'g'ri berilishi, yer toifasi o'zgariganida nobudgarchilik uchun to'lovni 10 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etilishi, yerni rasmiylashtirish, toifasini o'zgartirish, qurilish va infratuzilmaga ulanishga ruxsatnoma olish uchun investorlarga kompleks xizmat ko'rsatadigan "invest.gov.uz" elektron platformasi ishga tushirilishi aytiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar dunyoning mashhur brendlarini jalb qilish orqali ushbu hududlarda faoliyat yuritadigan korxonalar xalqaro texnik reglamentlar, ekologik va mehnat standartlarini qo'llash imkoniyati, ular uchun maxsus – imtiyozli investitsiyaviy, soliq, bojxona va huquqiy rejim joriy etilishi hamda xalqaro huquq doirasida arbitraj nizolarini ko'rib chiqish imkoniyati yaratilishi aytiladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarini kengayitishni tezlashtirib, barcha sohalarda ichki quvvatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika hamda texnologiyalarni, eksportbop tovarlarni o'zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali mamlakat iqtisodiy qudratini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar
qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Xalqaro anjuman

ASOSIY MAVZU —
AYOLLARNING ODIL
SUDLOVDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARINI
KENGAYTIRISH

AQSHning Nyu-York shahrida bo'lib o'tayotgan BMT Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyasining 70-yubiley sessiyasida senator Gulnora Ma'rufova, Oliy sud, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz rahbarlarining o'rinbosarlaridan tarkib topgan O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etmoqda.

Ushbu nufuzli forumda BMTga a'zo davlatlar parlament a'zolari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillari qatnashmoqda.

Ayollar va qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning siyosat va iqtisodiyotdagi ishtirokini kengaytirish, zo'rvonlikka qarshi kurashish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ayollar huquqlariga ta'siri BMT yubiley sessiyasining asosiy mavzuiga aylandi.

Sessiyaning tantanali ochilishi marosimida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish ayollar huquqlari sohasidagi biron-bir yutuq o'z-o'zidan paydo bo'lmagani – har bir oldinga tashlangan qadam faollar, huquq himoyachilari va jamoat harakatlarining uzoq davom etgan kurashi natijasi ekanini alohida ta'kidlab o'tdi. "BMT-ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Baxus o'z chiqishida gender tenglikni qo'llab-quvvatlovchi mamlakatlarning hukumatlari va tashkilotlari vaziyatini yaxshi tomonga o'zgartirish va odamlar hayotini yaxshilash uchun yetarli darajada kuchli ta'sirga ega ekanini qayd etdi.

Anjuman doirasida barcha ayollar va qizlarning odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlash hamda kengaytirishga qaratilgan qonunlarga urg'u berildi. Bundan ko'zlangan maqsad – birinchi navbatda, kamsituvchi qonunlar, siyosat va amaliyotlarni bartaraf etish hamda tizimli to'siqlarni yo'q qilish orqali inklyuziv va adolatli huquqiy tizimlarni shakllantirish.

O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, kamsituvchi qonunlar, siyosat va amaliyotlarni hamda tizimli to'siqlarni bartaraf etishga bag'ishlangan yuqori darajadagi interfaol muloqotda ham qatnashdi.

O'rganish

SUVNI ASRAGAN —
HAYOTNI ASRAYDI

Hozirgi kunda poytaxt aholisining 94 foizi markazlashgan kanalizatsiya tizimi bilan qamrab olingan bo'lib, shaharda 3 ta asosiy tozalash inshooti mavjud. Ularining umumiy quvvati sutkasiga 1 715 ming kub metrni tashkil etadi.

Mazkur turgadi inshootlarning ish jarayonini o'rganish maqsadida Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zolari "Salar" oqova suv tozalash inshooti faoliyatini bilan yaqindan tanishdi.

"Salar" inshooti poytaxt kanalizatsiya tizimining eng muhim obyektlaridan biri sanalib, uning loyiha quvvati sutkasiga 960 ming kub metr, amaldagi ish yuklamasi esa 860 – 900 ming kub metrdan iborat. Uning tozalash samaradorligi hozirgi kunda 72 foizni tashkil etmoqda.

Bu yerda oqova suvlar mexanik, biologik va dezinfeksiya bosqichlari orqali tozalanadi. Tozalash oqova suvlar inshootga kirishidan boshlab so'nggi chiqish qismigacha davom etadi va sifat doimiy ravishda maxsus laboratoriyada nazorat qilinadi hamda amaldagi standartlar asosida ta'minlanadi. Bugungi kunda natriy gipoxlorit bilan zararsizlantirish uchun 62 ta maxsus uskuna faoliyat ko'rsatmoqda.

Tozalash jarayonida hosil bo'lgan quyqalar inshoot hududidagi 35 ta maydonda qayta ishlanadi. Bundan tashqari, inshoot hududi "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'klamzorlashtirilgan.

2026 – 2028-yillarga mo'ljallangan modernizatsiya dasturi doirasida inshootning qum tubochilari ta'mirlanishi, mexanik taroqlar va nasos agregatlari yangilanishi, qabul qilish bo'lmisida havo tozalash uskunalarini o'rnatish hamda quyqani qayta ishlovchi "Biorganik" uskunasi ishga tushirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, oqova suv kirish kamerasiga havo tozalash uskunasi o'rnatish ham rejalashtirilgan bo'lib, bu inshootdan chiqayotgan badbo'y hidlarni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Inshoot faoliyatida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, kanalizatsiya tizimiga ishlab chiqarish korxonalar tomonidan turli kimyoviy bo'yloqlar va chiqindilar tashlanishi uskunalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'rganish davomida mazkur kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

Senat va yoshlar

PARLAMENT FAOLIYATI —
TALABALAR NIGOHIDA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari bilan uchrashuv tashkil etildi.



Unda talabalarga Senat faoliyati, parlament yuqori palatasining asosiy vakolatlari hamda qonun ijodkorligi jarayoni haqida ma'lumot taqdim qilindi. Shuningdek, Senatda ko'rib chiqilayotgan qonunlar va ularning mazmuni-mohiyati yuzasidan tushuntirish berildi.

Ta'kidlanganidek, bunday uchrashuvlar yoshlarning parlament faoliyatiga qiziqishini

oshirish, ularning siyosiy-huquqiy bilimlarini kengaytirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan tadbirda talabalar o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob oldi.

"Xalq so'zi".

YURT RAVNAQI, AHOLI FAROVONLIGINING
MUSTAHKAM KAFOLATI

Xususan, "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunning arxiv hujjatining elektron nusxasi, idoraviy arxiv, elektron arxiv tushunchalariga berilgan ta'riflar aniqlashtirildi.

Shuningdek, qonun loyihasi elektron arxivni shakllantirish tartibi va o'ziga xos talablarini belgilovchi alohida modda bilan to'ldirildi. Unda elektron arxivni tashkil qilish uchun elektron shakldagi arxiv hujjatini uning asl arxiv hujjati bilan birxilligini ta'minlash, elektron arxiv hujjatlarini qidirish, boshqarish va ishlov berish imkoniyatining mavjudligi, elektron arxiv tizimining xavfsizligi va kibernetik talablariga rioya etilishi zarurligi to'g'risidagi hamda boshqa talab va qoidalar belgilanmoqda.

Bundan tashqari, qonun loyihasi bilan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirishga oid normalarga aniqlashtiruvchi va tahririy tuzatishlar kiritildi.

Diyor HUSANOV,
Innovatsion rivojlanish va axborot
texnologiyalari masalalari qo'mitasi
a'zosi:

– Qonun loyihasining qabul qilinishi dolzarb bo'lib, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun biznesni boshlashda ortiqcha tartib-taomillardan o'tish jarayonlarini bartaraf etish, arxiv tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solish, arxiv hujjatlarini elektron shaklda saqlashning asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

**Mahalliy Kengash raisi o'rinbosari
instituti joriy etilmoqda**

Bir guruh deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan – xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddamodda ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan xalq deputatlari mahalliy Kengashi raisi o'rinbosari institutini joriy etish, unga bir vaqtning o'zida Kengash kotibiyati mudiri vazifasini bajarish hamda Kengash kotibiyati xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish vakolatlarini berish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar faoliyatini samarali yuritish maqsadida mahalliy Kengashlar sessiyalari kun tartibi loyihasini shakllantirish hamda ularni chaqirish, doimiy komissiyalar ishini muvofiqlashtirish va boshqa tashkiliy vakolatlariga ega Kengash Rayosati instituti joriy etilib, uning ish faoliyatini tartibi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, Kengashlarda mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlarining ayrim muhim ijtimoiy masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish bo'yicha "Kengash soati" instituti joriy qilinmoqda.

Gulruh AGZAMOVA,
Demokratik institutlar va fuqarolik
jamiyatini rivojlantirish masalalari
qo'mitasi raisi:

– Ushbu qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 17-fevral kuni bo'lib o'tgan majlisida birinchi o'qishda ko'rib chiqilib, deputatlar tomonidan uni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berilgan edi. O'tgan davrda qo'mitada ushbu takliflar atroflicha tahlil qilinib, ularning asosli, deb topilganlari hujjat matnida aks ettirildi. Aytish joiz, qonun loyihasining qabul qilinishi xalq deputatlari Kengashlari faoliyatini samarali tashkil etish hamda joylarda Kengashlar nazorat ishini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati samaradorligi oshirildi

Deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va

qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar va mutaxassislarining xorijdagi nufuzli ta'lim va ilmiy muassasalarda tahsil olishini ta'minlash, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish va ularning xorijda maqsadli stajirovkalardan o'tishini tashkil etish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayonlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash ham dolzarb ahamiyat kasb etayotir.

Ushbu qonun loyihasida "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlarining majburiyatlarini aniq belgilash, jamg'arma tomonidan sarflangan mablag'larni undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga da'vo kiritishda davlat bojini to'lashdan ozod qilishni nazarda tutuvchi norma kiritish taklif etilmoqda.

Loyihada idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqish va kelishish tartibini soddalashtirish hamda muddatlarni qisqartirish nazarda tutilyapti. Xususan, bunday hujjatlar loyihasining jamoatchilik muhokamasi muddatini 10 kun etib belgilash, 5 kun ichida taklif kelib tushmagan taqdirda loyihani huquqiy ekspertizaga kiritish imkoniyatini berish, shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatini 20 kunga qisqartirish taklif qilinmoqda.

Majlisda ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ko'tarish, qonunchilik hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Deputatlar tomonidan qonun loyihasining muhimligi ta'kidlangan holda, qator aniqlashtiruvchi savollar o'rta taga tashlandi. Jumladan, **O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Zafar Xudoyberdiyev** mazkur loyiha bilan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga "El-yurt umidi" jamg'armasi – stipendiatlar o'z majburiyatlarini bajarmagani oqibatida yetkazilgan zarar o'rinni qoplash maqsadida o'qitish xarajatlarini undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan" degan norma kiritilishi taklif

qilinayotganini aytib, nima uchun konsepsiyada keltirilgan "o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagani oqibatida yetkazilgan zarar o'rinni qoplash" qonun loyihasi matnida aks etmayotgani bilan qiziqdi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi **Nodir Tilavoldiyev** esa kuni kecha fraksiya yig'ilishida qonun loyihasi qizg'in muhokama qilinganini va ayrim savollarga yetarlicha javob olinmaganini qayd etib, bugungi kunda ushbu qonun loyihasiga nechog'li zarurat borligi sabablari yuzasidan izoh so'radi.

Deputatlarining savollariga qonun loyihasiga mas'ulalar tomonidan atroflicha javob qaytarildi. Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Qonunchilik taklifi ko'rib chiqildi

Majlisda Senatning mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik taklifi ham ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonunchilik taklifi mahalliy Kengashlar faoliyatini transformatsiya qilish, ularning Senat va boshqa davlat organlari bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Hujjat bilan xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi raislari bir vaqtning o'zida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengash faoliyatiga raislikni ham bajarishi nazarda tutilyapti. Bu esa hududlarda korruptsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari zimmasiga vazifa va funksiyalarni yuklash bilan bog'liq muvobiqatlarini tartibga solishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Majlisda mazkur qonunchilik taklifi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yanada samarali tashkil etishga va ijro hokimiyati bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan ta'kidlandi.

Qizg'in munozaralardan so'ng ushbu masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Matbuot xizmati.**

DEPUTATLAR SAVOLLARIGA VAZIR JAVOB BERDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi hamda Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi.

"Hukumat soati"

Unda "Madaniyat muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va targ'ib qilish hamda madaniyat sohasidagi ta'limni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi masala muhokama etildi. Deputatlar savollariga O'zbekiston madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi to'qqiz yilda mazkur sohaga oid 4 ta qonun, Prezidentning 35 ta farmon va qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 98 ta qarori qabul qilindi. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi hamda jonli ijro san'atini rivojlantirishga qaratilgan qonunlar imzolandi. Shuningdek, soha xodimlarining maqomini oshirish maqsadida 15-aprel – Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilandi.

Shu bilan birga, madaniyat infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar natijasida 2 ta zamonaviy teatr, 19 ta madaniyat markazi, 20 ta musiqa va san'at maktabi, 8 ta ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internati hamda 5 ta oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi.



Milliy an'ana va qadriyatlarimizni yosh avlodga yetkazish maqsadida O'zbek milliy maqom san'ati hamda Respublika baxshichilik san'ati markazlari ochildi, hududlarda namunaviy maqom va baxshichilik ansambllari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Aholiga sifatli madaniy xizmat ko'rsatish maqsadida O'zbekiston davlat filarmoniyasi, "Bahor" davlat raqs ansambli, Andijonda yoshlar simfonik orkestri va Farg'onada milliy simfonik orkestrlar faoliyati tashkil etildi. Shuningdek, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti, Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati

instituti kabi yangi oliy ta'lim muassasalari ish boshladi.

"Hukumat soati"da deputatlar madaniyat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Qayd etilishicha, sohaga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar 2017-yildagi 122,8 mlrd. so'mdan 2026-yilda 1,2 trln. so'mdan ortiqqa yetkazilib, qariyb 10 barobar oshirilgan. Bugungi kunda 839 ta madaniyat markazida 3 258 ta to'garak va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyat yuritmoqda.

Muhokama davomida deputatlar soha istiqboliga doir qator masalalar yuzasidan vazirga savollar bilan murojaat qilindi.

Xususan, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi **Shahnoza Xolmahmatova** madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash hamda ularni ish bilan ta'minlash masalasiga to'xtaldi. Uning ta'kidlashicha, madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar soni so'nggi besh yilda 29 545 nafar yoki 36,6 foizga oshgan sohada salmoqli inson kapitali shakllanayotganidan dalolat beradi. Biroq "Drama va kino aktyorligi" yo'nalishi bitiruvchilari davlat teatrlaridagi shtat birliklari cheklangani sababli ish bilan ta'minlanishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan deputat davlat-xususiy sheriklik asosida yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish

bo'yicha qanday loyihalarni amalga oshirilayotgani bilan qiziqdi. Vazir javobida kreativ industriyalar jahon iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallayotganini ta'kidlab, mamlakatimizda ham ijodiy industriyalarni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar asosida ijodiy makonlar tashkil etish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilganini ma'lum qildi.

Aytilganidek, xorijiy tajriba, xususan, Turkiya amaliyoti madaniyat sohasida xususiy sektor faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Shu bois mamlakatimizda ham mazkur

yo'nalishni rivojlantirish orqali yosh ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi **Azamot Pardayev** joylardagi madaniyat markazlarining moddiy-texnik holatiga oid masalani ko'tardi. Uning ta'kidlashicha, joylarda o'tkazilgan o'rganishlar ayrim madaniyat markazlarining binolari va moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermasligini ko'rsatmoqda.

Vazir ushbu savolga javob berar ekan, ta'mirlalab markazlarni bosqichma-bosqich



yangilash ishlari davom ettirilayotganini ta'kidladi.

O'zXDP fraksiyasi a'zosi **Qizilgul Qosimova** milliy telemahsulotlar mazmuniga e'tibor qaratib, jamiyat uchun ibrat bo'ladigan qahramonlar hayotini yorituvchi milliy serial va filmlar yaratish muhimligini aytilib o'tdi.

Vazir bu borada jamiyatdagi talab va ma'naviy mezonlarni belgilash, milliy qadriyatlariga zid bo'lgan kontentlarga qarshi kurashishda davlat idoralari bilan birga jamoatchilik va parlament vakillarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanini urg'uladi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi **Oydin Abdullayeva** O'zbekiston nomidan xalqaro festivalda qatnashish uchun yuboriladigan nomzodlarning saviyasi, repertuari va qo'shiqlarining badiiy qimmatini yuzasidan ekspertlar kengashi muhokamalarini tashkil etish hamda dunyo sahnalarini zabt qila oladigan kadrlarni maqsadli tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan izoh so'radi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi **Mohira Xo'jayeva** esa omzodiy madaniy tadbirlarda ekologik talablarga rioya etish masalasini ko'tardi.

Vazir ushbu savollarga atroficha javob berib, olib borilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumot taqdim qildi.

Muhokama yakunida deputatlar madaniyat sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator taklif hamda tashabbuslarni bildirib, kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

NAZORAT – KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA MUHIM OMIL

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan Ichki ishlar vazirligining kiberjinojatchilikka qarshi kurashish bo'yicha olib borayotgan ishlari yuzasidan axboroti eshitildi.

Eshituv

Unda Markaziy bank, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi mas'ullari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda kiberjinojatchilikka qarshi kurashish samaradorligini ko'tarish va kiber muhitdagi jinojatlarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda yurtimizda kiberjinojatlarning turi 18 tadan 62 taga ko'paygan. Ayniqsa, zararli fayllarni tarqatish, bank kartalari bilan bog'liq fribgarlik holatlari bugungi kunda aholini jiddiy xavotirga solmoqda.

Yig'ilishda mazkur yo'nalishda ko'rilayotgan choralarga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimizning 2025-yil 30-apreldagi tegishli qarori bu yo'nalishdagi chora-tadbirlarning mustahkam huquqiy asosini yaratib berdi. Ushbu hujjatda Ichki ishlar vazirligi barcha mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqdoshlashtirish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi, ichki ishlar organlari mas'ul bo'linmalari so'roviga asosan shubhali pul o'tkazma amaliyotlariga aloqador bank kartalarini tezkorlik bilan bloklashga oid choralarni ko'rish nazarda tutilgan.

Vazirlik, Bosh prokuratura va Markaziy bank o'rtasida kiberjinojatlarga qarshi kurashishda zudlik bilan ma'lumotlar uzatish va tushgan murojaatlar bo'yicha tezkor choralarni ko'rish maqsadida elektron ma'lumotlar almashinuv platformasini ishga tushirish kabi tadbirlar belgilangan.

Yig'ilishda shu yil 27-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda belgilangan vazifalarga ham alohida e'tibor qaratilib, kiberjinojatlarni tezkor fosh etish va to'xtatish uchun vazirlik tomonidan bu sohada ko'rilayotgan choralar samaradorligini oshirish muhimligi aytili.

Ma'lum qilinganidek, vazirlik tizimida Kiberxavfsizlik markazi va hududlarda kiberjinojatlarga qarshi kurashish

boshqarmalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Vazirlik tizimida esa Kiberxavfsizlik bo'yicha departament tashkil etilishi rejalashtirilgan.

O'tgan yilda markaz va hududlardagi boshqarmalar tomonidan 8,8 mingta kiberjinojot fosh etilib, bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 5,2 baravar oshgan. Eng xavfli 1,6 mingta dastur faoliyati esa to'xtatildi. Natijada 13 mingdan ortiq fuqarolarning buzilgan qonuniy manfaatlari tiklanishiga, yetkazilgan 95,4 mlrd. so'm moddiy zarar o'z egalari qaytarilishiga erishilgan.

Shuningdek, 4,6 mingta kiberjinojot tashabbus bilan aniqlanib, bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 4,2 baravar yaxshilangan. Kibermakonda jamoat tartibiga tahdid soluvchi 5,7 mingta zararli kontent va resurs aniqlanib, 3,8 mingta internet resursi va 1,6 mingta fribgarlikka undovchi zararli

havola faoliyati boshqa idoralari bilan hamkorlikda to'xtatildi.

Yuqorida aytilgan elektron ma'lumotlar almashinuv platformasi foydalanishga topshirilib, fuqarodan ayiza tushishi bilan shu vaqtning o'zida undan noqonuniy o'zlashtirilgan pullar o'tkazilgan hisob raqamlari bloklash imkoniyati yaratilmoqda. Xususan, o'tgan yil sentabrdan hozirga qadar 43,3 mlrd. so'm chetga chiqishi to'xtatib qolindi va jinoyatga aloqador 11,7 mingta hisob raqam banklar tomonidan bloklandi.

Fribgarliklarning oldini olish maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda xorijdan keladigan soxta qo'ng'iroqlarni cheklash tizimi ham joriy qilindi. Natijada 2025-yil iyul oyidan hozirga qadar 2 milliondan ortiq soxta qo'ng'iroqlar bloklandi, jinojatlarning oldini olishga erishildi. Shu bilan birga, aholining kiberjinojatlardan ogohliligi oshirish bo'yicha o'tgan yilda barcha soha xizmatlarini jalb qilgan holda kompleks targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilib, aholining 17 milliondan ortiqi qamrab olindi.

Saydullo AZIMOV,

Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Buqun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga jadallik bilan kirib kelib, bu xizmatlar va elektron platformalar hayotimizni ancha yangilashirdi. Lekin ushbu imkoniyatlar bilan bir qatorda, yangi turdagi xavflar ham paydo bo'lmoqda. Shu bois kiberjinojatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, aholining kiberxavfsizlik bo'yicha savodxonligini oshirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning kiberxavfsizlik madaniyatini yuksaltirish orqali kiberjinojatchilik xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Xushvaqt XAYITOV,

Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Yig'ilishda fribgarlik va o'g'irlik ko'rinishidagi kiberjinojatlarni yanada samarali kurashish bo'yicha vazirlik faoliyatini kuchaytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Bu borada kiberfribgarlik bilan o'zlashtirilgan mablag'lar respublika hududida chiqib ketishining oldini olish bo'yicha mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Shuningdek, kiberjinojatlarning oldini olishda mas'ul tashkilotlarning majburiyatlarini qonunchilikda aniq belgilash, tashkilotlarda xavfsiz axborot tizimlarini integratsiyalash ishlari jadallashtirish, aholida internet kontentlariga nisbatan tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kompleks targ'ibot choralari kuchaytirish lozim.

Yakunda ushbu yo'nalishda parlament va deputatlik nazoratini kuchaytirish, vazirlik va boshqa idoralari bilan hamkorlik samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

«AQLLI» TEXNOLOGIYALAR

dehqonchilikda obihayotni o'n karra tejash imkonini beradi

Taqdimotda suv resurslari uchun soliq stavkasi va subsidiyalarning miqdorini yer maydonlarining suv bilan ta'minlanganlik holatidan kelib chiqib belgilash, suv barqaror bo'lmagan hududdagi sug'oriladigan yer maydonlariga suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinganda, ajratiladigan subsidiyalarga 1,25 oshiruvchi koeffitsiyent qo'llagan holda hisoblash taklif etildi. Shuningdek, tejamkor texnologiyani o'z mablag'i hisobidan joriy qiladigan tashabbuskorlarga subsidiya ajratishning yangi tizimini qo'llash, bunda tegishli loyiha-smeta hujjatlari va loyihani amalga oshirish bo'yicha ta'minotni korxonalar bilan tuzilgan shartnoma asosida subsidiya mablag'larining 50 foizi Agrar sohada to'lovchi agentligi tomonidan oldindan ajratilishi ham aytili.

Bundan tashqari, suv tejoychi texnologiyalarni tatbiq qilayotgan dehqonlarga yana bir qancha yengilliklar berilishi kutilmoqda. Masalan, paxtachilikda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun kredit mablag'lari har yil noyabr oyidan boshlab ajratiladi. Suv tejoychi texnologiyalarni qurib bergan pudrat tashkilotlari har bir loyihaga kamida 2 yil kafolat berib, 5 yil davomida servis xizmatlari ko'rsatishi majburiy etib belgilanmoqda.

Suv taqchilligi kuzatilayotgan hozirgi sharoitda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya va uning hududiy bo'linmalari mutaxassislarining mas'uliyatini yanada kuchaytirish juda muhim. Shu bois ushbu inspeksiya va quyidagi tizimda suv tejoychi texnologiyalardan hamda suvdan foydalanish monitoringini yuritish bo'limlari tashkil etiladi. Tadbirkorlik subyektlarida inspeksiya tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarni xuddi yo'l harakati xavfsizligi inspektorlari singari yonkameralardan foydalangan holda amalga oshirish tartibi yo'lga qo'yiladi. Inspeksiya qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida suvdan foydalanish va suv isrofini monitoring qilish maqsadida uchuvchisiz uchish dronlarini ishlatishga ruxsat beriladi.

"Vaziyatlar markazi" – nazorat natijadorlik demak

– Qattiq tartib va adolati nazorat o'rnatilgan suv ta'minotida muammo barham topadi, suv manbaidan uzoqda joylashgan fermer

xo'jaligining dalasiga qadar suv yetib boradi, – deydi namanganlik fermer Abdurahob Boyxonov. – Bu talab suv tejoychi texnologiyalar o'rnatilgan chog'da ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmaydi. Suvga nisbatan munosabat o'zgarishida "Suvchilar maktabi"ning ta'siri katta bo'lmoqda. Mazkur loyiha doirasida 10 mingta fermer xo'jaligi xodimlarining malakasi oshirilishi, 358 nafar suv xo'jaligi mutaxassis xoriyga yuborilishini eshitib, juda quvondim.

E'tirof etish kerak, o'tgan yili davlatning moddiy qo'llab-quvvatlovi bilan suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tizimda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Birgina irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiyasiga 1 trln. 356 mlrd. so'm davlat

"aqli suv", 10 983 ta meliorativ kuzatuv qudug'ida sizot suvlari ko'rsatkichlari va yerlarning mineralashganlik darajasini nazorat qiluvchi "Diver" qurilmasi, 1 749 ta nasos stansiyasida suv sarfini monitoring qilish qurilmalari o'rnatildi. 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektinging boshqaruvi to'liq avtomatlashtirildi.

Suv xo'jaligi vazirligining o'rinbosari Rustam Qarshiyevning ta'kidlashicha, vazirlik huzuridagi "Vaziyatlar markazi"da 10 ta axborot tizimi takomillashtirilib, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi "Raqamli suv xo'jaligi" yagona platformasi ishga tushirilgan davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar mevasidir. Prezidentimizning

"Kyeyingi yetti yilda elektr energiya iste'moli 1,9 mlrd. kVt/soatga kamaytirildi. Oxirgi to'rt yilda esa 13 254 ta suv olish nuqtasida "aqli suv", 10 983 ta meliorativ kuzatuv qudug'ida sizot suvlari ko'rsatkichlari va yerlarning mineralashganlik darajasini nazorat qiluvchi "Diver" qurilmasi, 1 749 ta nasos stansiyasida suv sarfini monitoring qilish qurilmalari o'rnatildi. 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektinging boshqaruvi to'liq avtomatlashtirildi.



mablag'lari yo'naltirildi. Natijada 553,6 km. kanal, 24,8 km. lotok tarmoqlari, 40,4 m³/soniya suv chiqarish quvvatiga ega bo'lgan nasos stansiyalari, 46,7 km. bosimli quvurlar, 45 ta sug'orish qudug'i qurildi va rekonstruksiyasi qilindi.

Tizimda energiya tejamkorligiga ham alohida e'tibor berildi. Jumladan, nasos stansiyalari va tik quduqlarni ishlatish uchun 6,8 mlrd. kVt/soat elektr energiya limiti belgilangan holda, amalda 6 mlrd. kVt/soat quvvat sarflandi. Bu 2024-yilning mos davridagiga nisbatan 197 mln. kVt/soat elektr energiyasi iqtisod qilindi, demakdir. Yana bir e'tiborli jihat shundaki, nasos stansiyalari 2018-yilda 8,3 mlrd. kVt/soat quvvat "yegan" bo'lsa, bu raqam 2025-yil yakunida 6,4 mlrd. kVt/soatni tashkil etdi.

Ko'rinib turibdiki, keyingi yetti yilda elektr energiya iste'moli 1,9 mlrd. kVt/soatga kamaytirildi. Oxirgi to'rt yilda esa 13 254 ta suv olish nuqtasida

o'tgan yil 13-oktabrdagi farmoni asosida "Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi" davlat muassasasi tashkil etildi va ayni chog'da sohada byudjet mablag'lari ulushini kamaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik loyihalari alohida urg'u berilyapti.

Keyingi paytda parlament tomonidan sohada qonunchilikni takomillashtirishga ham jiddiy kirishilgan, buning natijasida 2025-yil 30-iyulda O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi tasdiqlangani e'tiborga molik. Mazkur kodeks kuchga kirishi bilan O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, Prezidentimizning 8 ta farmoni, 14 ta qarori hamda Hukumatning 26 ta qaroridagi normalar birlashtirildi.

Suv xo'jaligi vazirligi mas'ullarining so'zlariga qaraganda, endilikda resurstejamkor texnologiyalar

amaliyotga yanada kengroq tatbiq qilinadi. Xususan, joriy yilda 503 ming gektar sug'oriladigan yerlarda sug'orishning ilg'or texnologiyalari qo'llanilishi, 200 ming gektar ekinzorlar lazerli texnikalar yordamida tekislanishi belgilangan.


Asosiy, yurtimizning dehqonchilik qilinadigan yerlarida bosqichma-bosqich suv tejoychi texnologiyalar joriy etilayotgani ortidan fermerlar qo'shimcha daromad olishmoqda. Masalan, Koson tumanidagi "Koson" va "Asl Najim", Zafarobod tumanidagi "Forish yo'llari" fermer xo'jaliklari tomchilatib sug'orish texnologiyasi tufayli paxta hosildorligini 85 sentnerga yetkazishdi. Mirzaobod tumanidagi "Sirdaryo Jingo" MCHJ jamoasi ham o'tgan yil ming gektarlik paxtaozorida sug'orishning zamonaviy usulini qo'llab, 3,25 mln. kub metr suvni tejash, yoqilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itlar sarfini 25 – 35 foizga qisqartirishga erishdi. Hosildorlik esa 60 sentnerga yetdi. Bu qo'riq Sirdaryo sharoitida tom ma'noda mo'jizadir. Vaholanki, ushbu fermerlarning dalasida ilgari paxta hosildorligi 25 – 30 sentnerdan oshmagan.

Rustam Qarshiyevning aytishicha, o'tgan yilning o'zida jami 817,2 ming gektar (rejaga nisbatan 168 foiz) maydonlarda suv tejoychi texnologiyalar, jumladan, 103,2 ming gektarda tomchilatib, 30,7 ming gektarda yomg'irlatib, 13,7 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. Tahlillarga qaraganda, suv tejoychi texnologiyalar qo'llangan joylarda obihayot 45 – 50 foizga, yonilg'i-moylash materiallari va mineral o'g'itlar 25 – 35 foizga va boshqa mexanizatsiya xizmatlari xarajati esa teng yarmiga qisqarib, hosildorlik va mahsulot sifati kamida 20 foizga oshmoqda.

Masalaga zamonaviy yondashuv

Hayot bir joyda to'xtab qolmaydi, dunyoda ilmiy izlanishlar, kashfiyotlar innovatsiyalar uzluksiz davom etmoqda. Biz bugun suv sarfini tomchilatib sug'orish orqali ikki karra qisqartiryapmiz, deb turgan mahal, isroilliklar "aqli" texnologiya sharoifati bilan tejamkorlikni o'n karra oshirishga erishmoqda. Ana shunday so'nggi texnologiya xosiyati ikki yildirki, Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Nukus tumanidagi tajriba maydonida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Gap shundaki, bu texnologiya yordamida



o'simlikning qachon sug'orilishi kerakligini inson emas, balki ildizning o'zi "chip" orqali tizimni boshqaruvchi kompyuterga ma'lum qiladi. Tuproq ostidan o'tgan quvur ildizning ehtiyojiga yarasha ozuqayu kislorodni suv bilan yetkazib beradi. Bu vazifani mirob yoki olim emas, mikrochiplar boshqaruvdagi "aqli miya" qo'yilmaqom qilib bajaradi.

Isroillik mutaxassis Nir Nisim Xarazning aytishicha, algoritmi asosida ishlaydigan bu texnologiya har tomchlama mukammal. Faqat elektr ta'minoti mavsum mobaynida uzluksiz bo'lishi lozim. Aks holda bir zum bo'lsin, elektr uzilsa, bas, tizim izdan chiqadi. Uni sozlash, dasturni qayta tiklash esa qo'shimcha xarajat talab etadi. Agar bir gektar yerni sug'orish uchun, aytaylik, oddiy usulda 10 tonna suv sarflansa, bu texnologiyada o'n karra kam – bir tonna ishlatiladi, xolos. Tuproq tarkibi, o'simlik ildizining ozuqa va suvga talabchanligi, hatto kislorod me'yori ham ekranda ko'rinib turadi. Bir tomchi ham suv behuda ketmaydi.

– Bu texnologiya ball boniteti past va suv taqchil joylarda qo'llanilsa ham, kutilganidek natija olish mumkin, – deydi Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi rahbarining maslahatchisi, qoraqalpog'istonlik olim Duysenbay Utambetov. – Dastlab paykalin bir qismida kartoshka yetishtirib ko'rdik, natija a'lo. Negaki, bir tonna suv bir gektarlik ekinzorga yetarli bo'lishining o'zi mo'jiza. Menimcha, yaqin kelajakda mana shu "aqli" texnologiya O'zbekistondagi yuz minglab gektar ekinzorlarni qamrab oladi.

Abdunabi ALIQULOV ("Xalq so'zi").

Tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish xarajatlari uchun yangidan tashkil qilingan tutzorlarning har bir gektariga Agrar sohada to'lovchi agentligi tomonidan 8 mln. so'mgacha subsidiya beriladi.

Yangi O'zbekistonning «Yuksalish simfoniyasi»

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filialida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Abdusaid Ko'chimovning "Yuksalish simfoniyasi" nomli kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Taqdimot



Tadbirida Oliy Majlis Senati a'zolari Rustam Xolmurodov, Husan Ermatov va boshqalar yangi kitobning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritir ekan, mazkur to'plam Prezidentimizning xalqparvar, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan siyosati samarasida o'zgarayotgan shahar va qishloqlarimiz, ulkan bunyodkorlik ishlari va xalqimiz ongu tafakkuri, dunyoqarashidagi o'sish haqida hikoya qilishini ta'kidladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida buyuk ishlar amalga oshirildi. "Yuksalish simfoniyasi"da bu evrilishlarning falsafasi, mohiyati va hayotbaxsh ma'nosi odamlarga oddiy tilda sharhlab, tushuntiriladi.

Yurtimizdagi islohotlar yilnomasi bo'lgan ushbu kitobda jonajon Vatanimizning har bir viloyatida yuz berayotgan keng ko'lamli yangilanishlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari qalamga olingan. Zero, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlangan hayotbaxsh islohotlar O'zbekistonning har bir go'shasida xalqimizning bebosita ishtirokida davom etmoqda. Jamiyatdagi ma'naviy ko'tarinkilik, insonlardagi ertangi kunga ishonch shundan.

Adib o'z asarida jamiyatimizdagi tarixiy o'zgarishlarni tasvirlash orqali uning ijodkori bo'lmish, tanti va fidokor xalq siyosini chizishga intiladi. Shu ma'noda, asarni O'zbekistondagi yuksalishning, milliy uyg'onishning simfoniyasi, deysingha barcha asoslar bor.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilar qalbidagi el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'ularini uyg'otishi bilan ahamiyatlidir.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
(“Xalq so'zi”).

INSON QADRI — ISLOHOTLARNING BOSH MEZONI

Yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlikning oldini olishga qaratilgan yangi tashabbuslar ko'rib chiqilib, ma'qullandi. Bularning mazmunini tahlil etar ekanmiz, ularni faqat jinoiy javobgarlikni kuchaytirish sifatida emas, balki inson xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiya sifatida baholash mumkin.

Aks sado

Prezidentimizning "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi Farmoni ham bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq hamda zo'rovonlikka mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Binobarin, ushbu hujjatda zo'rovonlik holatlariga qarshi kurashish borasida mutlaqo yangi yondashuv, muhim chora-tadbirlar belgilanmoqda. Maqsad zo'rovonlik oqibatlarini bartaraf etish emas, balki uning oldini olishga qaratilgan profilaktik tizimni kuchaytirishdir.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari, ayniqsa, ayollar va bolalarning huquqiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilinayotgan qarorlar faqat ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikni kuchaytirish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy muhitini sog'lomlashtirish, oila institutini mustahkamlash, kelajak avlodning barqaror rivojlanishi uchun huquqiy va ijtimoiy zamin yaratishga qaratilgan tizimli yondashuvni anglatadi.

Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olishga doir yangi tashabbuslar, birinchi navbatda, inson qadriini ta'minlash g'oyasining amaliy ifodasidir. Zero, zo'rovonlik faqat jinoiy emas, balki jamiyatning ma'naviy immunitetiga putur yetkazuvchi xavfli ijtimoiy illat. Uning har bir holati ortida buzilgan taqdir, singan ishonch, yo'qolgan orzu-umid turibdi.

Bir-biridan ajralmas tushunchalar

Markaziy bank tizimida gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati davomida biz bir haqiqatni aniq anglab yetdik: iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy inkluzivlik va gender tenglik bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ayol o'zini xavfsiz his qilmagan, huquqiy himoyasi

ta'minlanmagan muhitda uning iqtisodiy faolligi, kasbiy o'sishi va ijtimoiy ishtiroki to'liq namoyon bo'la olmaydi.

Shu ma'noda, davlat rahbari tomonidan ko'rib chiqilgan tashabbuslar nafaqat huquqiy, balki strategik ahamiyatga ega. Ular mamlakatimizda gender siyosatining yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Taklif etilgan chora-tadbirlar ichida jinoiy va ma'muriy javobgarlikni kuchaytirishga oid normalar alohida e'tiborga loyiq.

Shahvoniy shilqimlik uchun belgilangan ma'muriy qanoq jazosini qat'iyalashtirish masalasi jamiyatdagi haqli e'tirozlarga javob sifatida ko'rilmog'da. Ilgari nisbatan yengil deb qabul qilingan jazo choralar ayrim hollarda profilaktik ta'sirni ta'minlashga yetarli bo'lmagan sir emas. Jazoning muqarrarligi va qat'iyli ega har qanday huquqbuzarlikning oldini olishda eng samarali omillardan biridir.

Pedofiliya kabi og'ir jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum etishgacha bo'lgan jazoni belgilash tashabbusi jamiyatning eng zaif qatlami — bolalar huquqlarining mutlaq himoyasiga qaratilgan. Bolalar xavfsizligiga tajovuz qilgan shaxsga nisbatan bag'rikenglik bo'lishi mumkin emas. Bu yerda insonparvarlik tamoyili jinoyat qurboni tomonida bo'lishi shart. Jinsiy jinoyatlarini voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etgan mahkumlarni manzil-koloniyalarga o'tkazmaslik haqidagi taklif ham jazoning real ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Bu orqali jazoning profilaktik va tarbiyaviy ahamiyati saqlab qolinadi.

Tergov vakolatlarini prokuratura organlariga o'tkazish taklifi esa protsessual mustaqillikni ta'minlash, ishlarni xolis hamda chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Jinsiy jinoyatlar kabi nozik va yuqori darajadagi ijtimoiy rezonansga ega ishlar alohida malaka hamda mas'uliyatni talab etadi. Shuningdek, shahvoniy shilqimlik o'ld ma'muriy materiallarda jinoyat alomatlarini mavjud emasligi yuzasidan prokurorlarini olish majburiyati kiritilishi huquqiy kafolatlarini kuchaytiradi. Bu orqali ishlarning sun'iy ravishda



yengillashtirilishi yoki noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga chek qo'yiladi.

Yuqori professional yondashuv talabi

Zo'rovonlikka doir ishlar bilan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan advokatlar, tergovchilar va sudyalarning shug'ullanishi to'g'risidagi tashabbus alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday ishlar nafaqat huquqiy bilim, balki psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Jabrlanuvchi bilan muloqot qilish, uning holatini inobatga olish, ruhiy og'riqning qayta qo'zg'atishiga yo'l qoymaslik — bularning barchasi yuqori professional yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, bolalar ishtirokidagi ishlar bo'yicha maxsus standartlar qo'llanilishi zarur.

"SOS" ilovalarini joriy etish

“Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olishga doir yangi tashabbuslar, birinchi navbatda, inson qadriini ta'minlash g'oyasining amaliy ifodasidir. Zero, zo'rovonlik faqat jinoyat emas, balki jamiyatning ma'naviy immunitetiga putur yetkazuvchi xavfli ijtimoiy illat. Uning har bir holati ortida buzilgan taqdir, singan ishonch, yo'qolgan orzu-umid turibdi.”

tashabbusi raqamli texnologiyalarni huquqni muhofaza qilish amaliyotiga integratsiyalashning yorqin namunasidir. 5 kilometr radiusdagi xodimlarning 10 daqiqa ichida yetib kelish mexanizmi jinoyatning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu tizimning maqbulligi zo'rovonlik qurboni o'zini yolg'iz his qilmagligida namoyon bo'ladi. Himoya orderi berilgan ayollar uchun qo'shimcha kafolatlarning yaratilishi davlatning profilaktik siyosatiga o'tayotganini ko'rsatadi. Ya'ni jinoyat sodir etilgandan keyin emas, balki uning ehtimolini bartaraf qilishga qaratilgan yondashuv ustuvor bo'lmoqda.

Yurtimizda nikohlarning katta qismi 18-19 yoshdagilar o'rtasida tuzilayotgani ham bog'lar. Xalqaro tavsiyalarga ko'ra esa 21 yosh oila qurish uchun nisbatan maqbul, deb qaraladi. Bu yoshga yetgan shaxs odatda moliyaviy mustaqillikka

erishishga, kasb-hunarga ega bo'lishga va hayotiy qarorlarni ongli qabul qilishga yaqinlashadi. Nikohni 21 yoshdan keyin tuzishni rag'batlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish taklifi ham juda o'rinni. Bu yerda gap taqiq yoki jazo haqida emas, balki rag'batlantirish siyosati haqida ketmoqda.

Moliyaviy savodxonlik, daromad manbaining barqarorligi va shaxsiy byudjetni boshqarish ko'nikmalari shakllanmagan holda tuzilgan nikohlar iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli yuqori. Erta nikoh ko'p hollarda ta'limning toxtashiga, ayniqsa, qizlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishiga olib keladi.

Nikoh shartnomalarini rag'batlantirish masalasi ham juda dolzarb. Davlat bojidan imtiyoz berish orqali shartnoma tuzishni ommalashtirish huquqiy madaniyatni oshiradi.

Jamoatchilik nazoratining yangi mexanizmi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy qaramlik zo'rovonlikka toqat qilish

omillaridan biridir. Daromad manbaiga ega bo'lmagan, ta'limdan uzilgan yoki kasbiy imkoniyati cheklangan ayol ko'pincha muammoli munosabatlardan chiqib ketish yo'lini topolmaydi. Shu ma'noda, talaba qizlar uchun ta'limni davom ettirish imkoniyatini yaratish strategik qadam hisoblanadi. Bu ularning kelajakda mehnat bozorida munosib o'rinni egallashi, iqtisodiy mustaqil bo'lishi va o'z qarorlari masalasida erkin bo'lishiga zamin

Ko'rib chiqilgan va ma'qullangan tashabbuslar mamlakatimizda ayollar va bolalarni himoya qilish borasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu jarayonda jazo muqarrarligi, profilaktika, iqtisodiy rag'bat, ta'lim, texnologiya va jamoatchilik nazorati bir-biri bilan uyg'un holda ishlashi lozim. Inson qadri ustuvor qo'yilgan davlatda zo'rovonlikka joy bo'lmagligi shart. Bu yo'lda har birimiz — davlat xizmatchisi, mutaxassis, ota-ona, jamoat faoli o'z mas'uliyatini yanalar harakat qilsak, islohotlar qog'ozda emas, hayotda samara beradi. Ayollar va bolalar xavfsiz bo'lgan jamiyat barqaror, adolati va taraqqiyot jamiyatidir. Shu maqsad sari qo'yilgan har bir qadam kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladi.

Sohibjamol JUMAYEVA,
Markaziy bankning gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi o'rinbosari.

REKLAMA

MILLIY QADRIYATLARIMIZNING YORQIN IFODASI

Qaror ana shu yuksak g'oyalarni hayotga tatbiq qilishni nazarda tutadi. Hujjatda Navro'zni mamlakatimiz bo'ylab umumxalq sayli sifatida keng nishonlash, uning g'oyaviy mazmunini boyitish, barcha hududlarda bayram tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish vazifalari belgilab berilgan. Tashkiliy qo'mitaga yuklatilgan vazifalar esa bayramning mazmunda va xalqchil ruhda o'tishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Qarorda "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan ezgu g'oyaning asosiy tamoyil sifatida ilgari surilgani bejiz emas. Chunki Navro'z qadimdan inson qalbidagi mehr-oqibat, saxovat va birdamlik tuyg'ularini uyg'otgan. Ushbu g'oya jamiyatimizda inson qadriini yuksaltirish, fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bilan mustahkam.

Hujjatda bayram tadbirlarini tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni ifoda etuvchi mazmunda tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa ona zaminga mehr va ehtiromni kuchaytirish, atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish kabi muhim g'oyalarni keng targ'ib qilish imkonini beradi. Navro'zning ma'naviy mazmuni anyan shunday g'oyalar bilan yanada boyiydi.

Joriy yilda Navro'z ayyomining muborak Ramazon hayiti bilan hamohang tarzda



nishonlanishi ayyomning ma'naviy qimmatini yanada yuksaltirishi muqarrar. Bu jarayonda keksa avlod vakillarini e'zozlash, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga alohida ehtirom ko'rsatish, ehtiyojmand insonlar holidan xabar olish kabi ezgu ishlar keng qamrov kasb etadi. Mehribonlik, Saxovat va Muruvvat uylarida yashayotgan insonlarga ko'rsatiladigan g'amxo'rlik jamiyatdagi bag'rikenglik va insoniylik tamoyillarini yanada mustahkamlaydi.

Qarorda belgilangan muhim yo'nalishlardan biri "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar bilan bog'liq. Navro'z arafasida ko'chat ekish aksiyalari, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, umumxalq hasharlari yurtimiz shahar va qishloqlariga yanada fayz bag'ishlaydi. Bu ishlar tabiatga ehtirom, pokiza muhit yaratish va kelajak avlod oldidagi mas'uliyat tuyg'usini yanada kuchaytiradi.

Bayram tadbirlarida millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashga

qaratilgan tashabbuslar ham alohida o'rinni egallagan. Yurtimizda yashayotgan turli millat va etlatlar vakillarining milliy urf-odatlarini, an'analarini va madaniy merosini keng namoyish qilish orqali xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlik yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, hunarmandchilik ko'rgazmalari, milliy sport musobaqalari, kitob yarmarkalari, bahoriy taomlar namoyishlari xalq sayllariga alohida



mazmun baxsh etadi. Bunday tadbirlar esa xalqimiz boy madaniy merosini keng targ'ib qilish bilan birga, yosh avlodni milliy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hilola YUSUPOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

"Shamsuddinov Boboxonov NMIU" MCHJ nashriyoti

O'zbekiston musulmonlari idorasining davriy nashrlari — "Hidoyat" va "Mo'minalar" jurnallariga ishlatiladigan qog'oz mahsulotini arzon, sifatli, belgilangan formatda bepul saqlash va kerakli vaqtda bepul yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan yuridik shaxslarni tender (tanlov) o'tkazish orqali aniqlash uchun hamkorlikka taklif etadi.

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Zaqaryan 18-berk ko'cha, 47-"A" uy.

Qog'oz mahsuloti formati:

- Mellangan yaltiroqsiz (mat.) qog'oz 90 gr/m², 60*84 sm — 80 000 kg.
- Mellangan yaltiroq (glyans.) qog'oz 130 gr/m², 60*84 sm — 25 000 kg.

Tender qatnashchilaridan talab qilinadigan hujjatlar:

- tender qatnashchilarining taklif xati;
- ta'sis hujjatlari (guvohnoma, ustav, ta'sis shartnomasi va boshqa hujjatlar);
- oxirgi uch yillik faoliyati haqida ma'lumotnoma va moliyaviy hisoboti;
- moliyaviy holati haqida bankdan ma'lumotnoma;
- ishtirokchilarning moddiy-texnika bazasi to'g'risida ma'lumotnoma (qog'ozni saqlash bazasi kadastr hujjatlari bilan, avtotexnika hujjatlari, agar ijara asosida foydalanayotgan bo'lsa, ijara shartnomasi nusxasi);
- tender takliflari faqat muhrlangan ikki qavatli xat jildda qabul qilinadi;
- tashqi xat jildda tender qatnashchisining taklif xati, ta'sis hujjatlari, oxirgi uch yillik faoliyati haqida ma'lumotnoma va moliyaviy hisoboti; moliyaviy holati haqida bankdan ma'lumotnoma va ishchi-xodimlarning tasdiqlangan YAMMT ma'lumotlari; ichki xat jildda moddiy-texnika bazasi to'g'risida ma'lumotlar va tegishlik hujjatlari bo'ladi.

Zarurat tug'ilganda qatnashchilardan qo'shimcha hujjatlar ham talab etilishi mumkin. Tender hujjatlari tender komissiyasiga kuzatuv xati orqali 2026-yil 24-mart soat 18.00 gacha qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar: 71-227-34-30, 71-240-08-23.

Navro'z bayrami arafasida "Vaqqf" xayriya jamoat fondiga birlashtirilgan ziyoratgohlarda belgilangan preyskurant bo'yicha kirish narxlariga 10 foizlik chegirma berilishi rejalashtirilgan.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeks — 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'tibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiy tashkilot tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Isomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaning manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.30 Topshirildi — 23.30

1 2 3 4 5 6